

PROFAYLING VA TEMPERAMENT TIPI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

Termiz davlat universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Psixologiya yo'nalishi

2-kurs 124-guruh talabasi

Rustamova Munisa Otabek qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada profiling va temperament tipi o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy manbalar asosida tahlil qilish, shu bilan birga, maqola tashqi xulq-atvor belgilarini kuzatish orqali shaxsni tushunish imkoniyatlarini yoritadi. Bu maqolada "Turli temperament egalari tana tili va mimikasida qanday farq qiladi?" savoliga javob olish mumkin bo'ladi.

Kalit so'z va iboralar: Profayling, temperament, xarakter, xulq-atvor, tana tili, xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolik, noverbal nutq, mimika.

Annotation: This article analyzes the correlation between profiling and temperament type based on scientific sources, while also highlighting the possibilities of understanding a person through observing external behavioral signs. In this article, one can find the answer to the question "How do individuals with different temperaments differ in body language and facial expressions?"

Keywords and phrases: Profiling, temperament, character, behavior, body language, choleric, sanguine, phlegmatic, melancholic, nonverbal speech, facial expressions.

Аннотация: В данной статье на основе научных источников анализируется связь между профилем и типом темперамента, а также освещаются возможности понимания личности через наблюдение внешних поведенческих признаков. В этой статье можно получить ответ на вопрос «Чем различаются язык тела и мимика у представителей разных темпераментов?». вопрос «Чем различаются язык тела и мимика у представителей разных типов темперамента?».

Ключевые слова и выражения: профайлинг, темперамент, характер, поведение, язык тела, холерик, сангвиник, флегматик, меланхолик, невербальная речь, мимика.

Insonning xatti-harakatlari uning
o'ziga xos tashrif qog'ozidir.
(Allan Pizz)

Profiling — insonning tashqi xulq-atvori, imo-ishoralari, tana tili va mimikasi orqali uning ichki psixologik holatini, xarakter va qaror qabul qilish uslubini aniqlash san'ati va fanidir. Bu jarayon bugungi kunda faqat psixologiyada emas, huquq-muhofaza, biznes, menejment va pedagogik faoliyatda ham keng qo'llaniladi. jinoyatchilik psixologiyasida, xodimlarni tanlashda siyosiy va maxfiy xizmatlar, surishtiruv ishlarida keng qo'llanadi. Profiling psixodiagnostik testlar, kuzatish, tana tilini tahlil qilish, mikroifodalar, vokal signallar va boshqa ko'rsatkichlarga tayanadi. Profiling kelib chiqishi 20-asr boshlaridagi kriminalistika va psixologik kuzatish tajribalari bilan bog'liq. Shu davrda politsiya va detektivlar, masalan, Sherlock Holmes kabi xarakterlar, odamlarning tashqi belgilaridan ularning ichki xulqini aniqlashga urinib ko'rgan. Sherlock Holmes odamlarning tashqi belgilari orqali ularning temperamentini aniqlashga mohir sifatida tasvirlangan. Tez va keng imo-ishoralardan

kelib chiqqan holda xolerik, sokin va ehtiyotkor harakatlardan flegmatik tiplarni aniqlaydi. Bundan tashqari Allan Pizzning “Tana tili” kitobida keltirilgan Charli Chaplin misoli juda mashhur. Bu misol profilingning eng muhim tamoyili — tana tili soʻzlardan kuchliroq ekanini isbotlab beradi. Charli Chaplin barcha filmlarida ogʻzidan bir ogʻiz ham soʻz chiqarmaydi, lekin butun dunyo millionlab odamlar uning nima demoqchi ekanini “tushunib” ketaverishadi. U soʻzsiz turib ham odamlarni kuldiradi, yigʻlatadi, qoʻrqitadi, hayajonga solidi, mehr uygʻotadi.

Chaplin filmlarini tushunish uchun ingliz tilini bilish shart emas, madaniy farqlarning ahamiyati yoʻq, hatto xalqning mentaliteti ham rol oʻynamaydi.

Chunki odamlarning tana tili signallari biologik va butun dunyoda bir xil maʼnoni beradi. Pizzning fikricha, Chaplinni tushunishimiz tana tilining kuchini isbotlaydi. Chunki soʻz boʻlmasa ham qoʻl harakati, yuz ifodasi, yurish tezligi, koʻz ifodasi, gavda holati shunchalik aniq axborot beradi-ki, odam ong ostida bularni talqin qiladi. Charli Chaplin misoli tana tilining insonlarni idrok etishdagi ahamiyatini yaqqol koʻrsatadi. Biroq shuni taʼkidlash joizki, tana harakatlari har doim ham shaxsning doimiy temperamentini toʻliq aks ettirmaydi. Chunki stress, vaziyat bosimi yoki ijtimoiy muhit taʼsiri ostida inson odatdagi xulqidan farqli harakat qilishi mumkin. Shu sababli profiling jarayonida tana tilini mustaqil mezon sifatida emas, balki boshqa psixologik belgilar bilan birgalikda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Badiiy obrazlar orqali ham profiling tushunchasini yoritish mavzuni tushunarli qiladi. Biroq bunday misollar ilmiy dalil emas, balki nazariyani tushuntiruvchi vosita hisoblanadi. Shuning uchun profilingda badiiy misollar yordamchi rol oʻynaydi, asosiy xulosalar esa ilmiy kuzatuv va psixologik tahlilga tayanishi lozim.

Tana tili odamning ichki holatini oshkor qiladi:

- qoʻllarni koʻkrakda chalishtirish — himoya;
- qoʻlni belga qoʻyish — ustunlik;
- kaftni koʻrsatish — soddalik;
- qoʻlni yashirish — sir saqlash.

Profaylingda tana tili orqali temperamentni aniqlash mumkin. Harakat dinamikasi, ko‘z qarashi, yuz ifodasi kabi belgilar temperamentning tashqi ifodasi hisoblanadi. Bu haqida bir qancha olimlarimiz o‘z asarlarida keltirib o‘tadi. Jumladan, Allan Pizz o‘zining “Tana tili kitobida tana tili insonning psixik holati va temperamentiga bog‘liq ravishda o‘zgarishini ta’kidlaydi:

“Insonning tana holati, yurish tezligi va imo-ishoralari uning temperament turini aks ettiradi. Masalan, sangvinik tiplar ochiq, faol, tez harakatlanadi; flegmatiklar esa sokin, sekin va kam so‘zli bo‘ladi.”

Temperament lotincha “temperamentum” degan so‘zdan olingan bo‘lib, “aralashma” degan ma‘noni bildiradi. Ayrim manbalarda temperament tushunchasi Klaudio Galen tomonidan kiritilgan degan fikrlar uchraydi, ba‘zilarida esa temperament haqidagi dastlabki ta’limotni yunon olimi Gippokrat tomonidan yaratilganligi qayd etiladi. Gippokratning ta’biricha, inson tanasida 4 xil suyuqlik (xil) mavjud bo‘lib, ular:

- 1.O‘t yoki safro
- 2.Qon
- 3.Qora o‘t
- 4.Balg‘am.

I.P.Pavlov temperament ham shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlarini keltirib chiqaruvchi omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, degan xulosaga keladi. I.P.Pavlov 4ta asosiy tiplarni ajratadi. Ular: 1.Kuchli,muvozanatsiz va harakatchan tip;

- 2.Kuchli,muvozanatli,inert
- 3.Kuchsiz, muvozanatsiz-qizg‘in, jo‘shqin tip;
- 4.Kuchsiz, muvozanatsiz, og‘ir–vazmin.

Demak, temperamentlarni mana shunday umumiy belgilarga qarab ajratish, mumkin. Barcha temperamentlarni qadimdan 4 ta tipga: xolerik, sangvinik, flegmatik va melanxolikka ajratish keng tarqalgan.

1.Xolerik tip-hissiyotning tez va kuchli qo‘zg‘aluvchanligi, barqaror bo‘lishi bilan farqlanadi. Xolerik temperamentli kishilarning hissiyotlari ularning imo ishoralarida,

mimikalarida, harakatlari va nutqlarida yaqqol ko'rinib turadi. Xoleriklar qizg'inlik va tajanglikka moyil bo'ladilar. Bunday temperamentli kishilar chaqqon, umuman harakatchan bo'lishadi. Sangvinik tip-hissiyotning tez, kuchli qo'zg'aluvchanligi, lekin beqaror bo'lishi bilan farq qiladi. 2.Sangvinik tipli kishilarning kayfiyati tez-tez o'zgarib, bir kayfiyat o'ziga teskari bo'lgan ikkinchi bir kayfiyat bilan tez almashib turishi mumkin. Ular chaqqon, serharakat va jo'shqin bo'lishadi. Atrof-muhitdagi voqealardan tez ta'sirlanadi va muhitga moslashuvchan bo'lishadi.

3.Melanxolik tip-barqaror, sustkash, davomli bir kayfiyatga moyil bo'ladilar. Melanxolik temperamentli odam ishga birdan kirishmasligi mumkin, lekin bir kirishsa, boshlagan ishini oxiriga yetkazmay qo'ymaydi. Bunday temperamentli bolalar mo'min-qobil, yuvosh bo'ladilar, ko'pincha, birov savol bilan murojaat qilisa, uyalib, tortinib javob beradilar.

4.Flegmatik tip-odamlarni xursand qilish, xafa qilish yoki g'azablantirish ancha qiyin. Bu tipli kishilar hissiyotining tashqi ifodasi kuchsiz bo'ladi. Ular ko'pchilikka kam aralashadigan,tortinchoq,birovni ranjitmaydigan bo'lishadi.

Temperament tiplari nazariy jihatdan aniq tavsiflangan bo'lsa-da, real hayotda sof temperament tiplari kam uchraydi. Ko'pchilik insonlarda bir nechta temperament xususiyatlari birgalikda namoyon bo'ladi. Shu sababli profilingda shaxsni faqat bitta temperament tipi bilan chegaralash noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin. Profiling jarayonida ustun xususiyatlarni aniqlash muhimroq hisoblanadi.Har bir tip tashqi belgilar orqali seziladi va profiling jarayonida asosiy indikator hisoblanadi. Yozuvchilar o'z asarlarida profayling va temperament tiplarining bog'liqligi haqida fikrlarini yoritib o'tishgan. Bularga Allan Pizzning "Tana tili" kitobida ta'kidlanishicha insonning psixik holati va temperamentiga bog'liq ravishda o'zgaradi. "Insonning tana holati, yurish tezligi va imo-ishoralari uning temperament turini aks ettiradi. Masalan, sangvinik tiplar ochiq, faol, tez harakatlanadi; flegmatiklar esa sokin, sekin va kam so'zli bo'ladi." Allan Pizzning fikricha, insonning tana harakati va imo-ishoralari uning tug'ma temperament tipi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu profiling jarayonida shaxs haqidagi dastlabki psixologik xulosani shakllantirish imkonini beradi.

David Keirsey va Marilyn Bates ning – “Iltimos, meni tushuning: xarakter va temperament tiplari” kitobida temperamentning 4 tipi haqida yozilgan. Bu to‘rtlik qadimgi Gippokrat tiplari (sangvinik, xolerik, flegmatik, melankolik) bilan parallel tarzda tahlil qilinadi. Kitobda “Har bir insonning temperament tipi uning harakat uslubini, nutq ohangini va muloqotdagi ishonchlilik darajasini belgilaydi. Profilingda temperamentni to‘g‘ri aniqlash insonning muloqot uslubini, hissiy reaksiyasini va qaror qabul qilish jarayonini tahlil qilish imkonini beradi” degan g‘oya ilgari surilgan. Keirsey temperamentni: “Shaxsning tashqi xulq-atvorini boshqaruvchi ichki energiya manbai”-deb ta’riflaydi. Profilingda bu energiya ifodasi orqali shaxs turini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

2. David Keirsey & Marilyn Bates – “Iltimos, meni tushuning: xarakter va temperament tiplari” kitobining 1–3-boblarida temperamentning 4 tipi (Artisan, Guardian, Idealist, Rational) haqida yozilgan. Bu to‘rtlik qadimgi Gippokrat tiplari (sangvinik, xolerik, flegmatik, melankolik) bilan parallel tarzda tahlil qilinadi.

I.P. Pavlov — “Oliy nerv faoliyati tiplari” (1903–1928) kitobida temperamentni nerv tizimining kuchi, muvozanati va harakatchanligi bilan bog‘laydi. Profaylingda bu reaksiya tezligi, tana harakati, ovoz ohangi orqali ko‘rinadi. Masalan: xolerik — tez harakatli, yuz ifodalari o‘zgaruvchan. flegmatik — sekin, barqaror, tana tili kam o‘zgaradi.

Karl Yung — “Psixologik tiplar” (1921) kitobida introvert va ekstravert turlarini ichki energiya yo‘nalishi asosida ajratgan. Profaylingda bu tana yo‘nalishi, nigoh va holatda aks etadi:

Ekstravert — ochiq pozitsiya, ko‘proq ko‘z bilan aloqa qiladi.

Introvert — yopiq tana holati, past nigoh.

Temperament insonning biologik asosi bo‘lib, profaylingda u tana tili, ovoz ohangi, mimika va jismoniy reaksiya shaklida namoyon bo‘ladi. Ekstravert va xolerik tipdagi shaxslar faol, tezkor tana harakatlariga ega bo‘lsa, introvert va melanxolik tipdagilarning tana ifodasi sokin va ichki yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Profiling jarayonida shaxsning tashqi harakatlari (tana tili, mimika, imo-ishora), nutq uslubi, ko‘z aloqasi, holat pozitsiyasi kabi belgilar orqali uning ichki xulq-ati, qaror qabul qilish uslubi, hissiy reaksiyalari va profil tipini aniqlashga harakat qilinadi. Va bu jarayonda temperament tipi katta rol o‘ynaydi.

Xolerik / ekstravert tip: faol, keng imo-ishora qiluvchi, ko‘proq ochiq tana holatiga ega shaxslar. Tana tili faol, mimika kuchli.

Sangvinik tip: ijtimoiy, ochiq, tez muloqot qiluvchi, ko‘z aloqasi kuchli shaxslar.

Flegmatik / introvert tip: sokin, ehtiyotkor, kam mimikali, ichki yo‘naltirilgan harakatlarga ega bo‘lgan shaxslar.

Melanxolik tip: ehtiyotkor, ichki fikrlashga moyil, xavotirli, harakatlari nazoratli va sekinroq bo‘lishi mumkin. Badiiy misol sifatida Sherlock Holmes xarakteri keltirilishi mumkin: u odamlarning tashqi belgilari — yuz ifodasi, qo‘l harakatlari, yurish uslubi, imo-ishoralari — asosida ularning xulq-atvori va ehtimoliy temperamenti haqida tezkor xulosalar chiqaradi. Masalan, tez harakat qiluvchi, yuz ifodalari o‘zgaruvchan shaxsni u tomonidan xolerik yoki ekstravert deb baholashi mumkin; aksincha, sokin, ehtiyotkor, kam harakat qiluvchi shaxsni “flegmatik/introvert” deb aniqlashi mumkin. Bu misol profiling metodikasining tushuntirishida samarali rol o‘ynaydi.

Ilmiy tadqiqotlar ham bu bog‘liqlikni tasdiqlamoqda. Masalan, quyidagi tadqiqotlar mazkur sohani mustahkamlaydi:

Boshqa bir tadqiqot esa shuni ko‘rsatdiki, temperament profili va shaxsiyat tiplari noklinikal kattalar orasida ham aniqlanib, psixologik moslashuv bilan farqlanadi. Shu tartibda, profiling jarayonida shaxsning temperament tipi aniqlansa, uning tana tili va tashqi belgilari bo‘yicha to‘g‘ri xulosa chiqarish ehtimoli oshadi.

Profiling va temperament tipi o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy asosga ega ekanligi ko‘p tadqiqotlar bilan tasdiqlanmoqda. Temperament — shaxsning biologik va psixologik asosi bo‘lib, uning tashqi belgilarida aks etadi va profiling jarayonida seziladi. Tashqi belgilarning (tana tili, mimika, imo-ishora) tezligi, hajmi, harakat dinamikasi shaxsning temperament tipiga oid ma’lumot beradi. Badiiy misol sifatida Sherlock Holmes va

Charli Chaplin bu jarayonni tushuntirishga yordam beradi. Allan Pizzning “Tana tili” kitobida Chaplin misoli keltiriladi, u noverbal nutq (noverbal nutq) orqali inson xatti-harakatlarini, hissiyotlarini va shaxsiyatini ifodalash imkoniyatini ko‘rsatadi.

Xolerik tip

Chaplin sahnalarida tez harakatlar, keng imo-ishoralar va kuchli mimika bilan dramatik vaziyatlarni ifodalaydi. U tez yugurib, qo‘lini keng yoyib tushuntirganida, xolerik temperamentning tashqi belgilari seziladi.

Sangvinik tip

U tabassum bilan, ochiq holatda, boshqalar bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi.

Chaplin sahnada boshqa aktyorlarni rag‘batlantiradi yoki qiziqarli vaziyat yaratadi, bu sangvinik shaxsiyatga xos xatti-harakatdir.

Flegmatik tip

Ba’zi sahnalarda Chaplin sokin, kam mimika bilan vaziyatni kuzatadi yoki passiv javob beradi. U stulda o‘tirib, yuzida osoyishta ifoda bilan voqealarni kuzatadi.

Melanxolik tip

Ehtiyotkor, mulohazali harakatlar, nozik mimika. Sahnada u biror muhim narsani diqqat bilan tekshiradi, qo‘llarini bir-biriga bog‘lab, ichki fikrini aks ettiradi.

Chaplinning sahnalari profiling va temperament nazariyasini amaliy tarzda tushuntirishga juda mos keladi. U harakatlar va noverbal nutq orqali turli temperament tiplarini ifodalaydi, bu esa o‘quvchi uchun vizual va tushunarli misol bo‘ladi. Profiling jarayonida shaxsning tashqi harakatlarini kuzatish orqali uning ichki xulq-atvori va temperamentini aniqlash mumkinligi Chaplin sahnalari orqali aniq ko‘rinadi.

Xulosa qilib aytganda, profiling va temperament bir-biriga bog‘liq tushunchalar bo‘lib, temperament profilingning bazaviy psixobiologik asosini tashkil qiladi. Temperament shaxsning xulq-atvor dinamikasini, tana tilini, nutq uslubini, stressga reaksiyasini oldindan taxmin qilishga yordam beradi. Profiling esa temperament xususiyatlarini boshqa psixologik va xulqiy belgilar bilan integratsiya qilib, insonning ehtimoliy xatti-harakatlarini tahlil qiladi. Ya’ni, temperament – tug‘ma asos, profiling – shu asosni tashqi belgilardan “o‘qish” san’atidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Allan Pizz – Tana tili. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi TOSHKENT 2024
- 2.R.Munisa-Temperament tiplarining dastlabki, hozirgi tasnifi va uning tarixiy visual ifodasi. Maqola.2024
3. E. G’oziyev. Umumiy psixologiya. Shaxsning psixologik xususiyatlari. Temperament. Toshkent 2020
4. Umumiy psixologiya/ Muhammedova D.G’, Mullaboyeva N. M , Rasulov A.I.; mas’ul muharrir E.G’. G’oziyev.- Toshkent; MUMTOZ SO’Z, 2018 5.Keirsey, D. (1998). Please Understand Me II: Temperament, Character, Intelligence. Del Mar, CA: Prometheus Nemesis Book Company.
6. Pavlov, I.P. (1928). Oliy nerv faoliyati tiplari.